



MUZRABOT

O'zbekiston—
kelajagi
buyuk
davlat

Gazeta 1969-yil 1-iyuldan chiqq boshlagan
Ijtimoiy-siyosiy gazeta

Xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashi va tuman hokimligining nashri

2026-yil 26-may
Seshanba № 10 (4530)



Усмон АЗИМ,
Ўзбекистон халқ шоири

Улар — ватанпарвар. Ҳар ҳолда Ўзбекистонда ҳудди шундай. Ватаннинг гуллаб-яшнаши, ижобий ўзгаришлар ҳар бир фуқаронинг ҳаётини юксалтириш сари қўйилган қадам эканини теран ҳис қиладилар, кайфиятлари кўтарилади. Худога минг шукри, бу ўзгаришлар ҳар соатда, ҳар кун рўй бериб турибди. Бутун мамлакат ҳаракатда. Энг муҳими, бу ислохотлар жайдари тусда эмас, балки жаҳоннинг энг илгор технологиялари асосида олиб боришмоқда. Шароитлар яратилгани туйғайли инвестициялар бемалол кириб келяпти. Ривожланиш шиддати бутун мамлакатни қамраб олган.

Қалам аҳли бу ва кўплаб бошқа ютуқлардан бохабар. Муаммоларни бартараф этиш йўлидаги саъй-ҳаракатлари ҳам мудом сезиб туради.

Яқинда бир ғуруҳ ижодкорлар билан қўшни дўст мамлакатда сафарда бўлдик. Бир кеч ўз-ўзидан бадиҳа давра тузилиб, суҳбат ғуруллаб кетди. Аввал мезбон мамлакатни Ўзбекистон билан таққос қила бошладик. Бараварига “Биз олдинга кетибмиз” деган хулосага келдик! Бугунги Ўзбекистон ҳақида гапладик. Мен етмиш олти йил умр кўрган, аммо халқимиз ҳеч қачон бундай яйраб яшамаганини айтиб қолдим. Даврадагилар бу гапимни ҳам бир оғиздан тасдиқлади. Ҳа, шундай! Ҳеч қачон бундай яшамаганмиз!

Юракларни фаҳр билан тўлдирган бу эътирофлар қачон кўнглимизни тўлдирди?

Ахир биз эътироф этган ютуқлар ўз-ўзидан пайдо бўлгани йўқ-ку!

Унинг ортида кимнинг меҳнатю заҳмати, бетинин ҳаракати ётибди?

Мамлакатимизнинг барча ҳудудда ёйилган бунёдкорликка ким ғайрат-шижоат бағишляпти?

Саволларга жавоб битта: бу оламшумул зафарларнинг ортида бир кишининг, ҳа, бир кишининг — Ўзбекистон Президенти Шавкат Миромонович Мирзиёев-



Муқаддима


Ҳақиқий ёзувчи-шоирлар ҳақиқатни ёзишни хуш кўради. Дунёнинг қайси бир четдаги адолатсизлик уларга ҳудди ўзининг уйда рўй бераётгандек туюлади. Қайдадир адолатнинг барқарорлиги ёки галабаси уларнинг руҳиятини кўтиради. Улар ҳар бир яхши одамнинг муваффақиятидан қувонади, одамларнинг муаммолари эса уларнинг ҳам дардига айланади.

нинг фидокорлиги турибди.

Оз эмас, кўп эмас, Янги Ўзбекистонни қурмоқчи бўлган шу азамат инсоннинг мисли кўрилмаган фидокорлиги!

Мен бу инсон ҳақида кўп ўйладим. Охири, бу одам ҳақида ёзма-сам, адолатдан бўлмас экан деган қарорга келдим.

Йўқ, хушомад қилиш ниятим йўқ. Нимага хушомад қиламан? Ёшим бир жойга борган бўлса, мукофоту унвонларни ҳам ҳеч кимга лиқилламай олган бўлсам...



Бу ислохотлар бошланганда мамлакат қай аҳволда эди?

Одамлар қандай яшаётган эди? Ўзимнинг бошимдан ўтказганларимни бир эслай.

Мен кўп қаватли уйда яшайман. Уйимиз неча-неча қишлар бўйи исимасди. Бир фарзандим кейинчалик “Шу уйда бир умр совуқ қотиб улғайдик”, деб эслади.

Нафақага чиқдим. “Ишласанг, нафақангнинг ярми тўланади”, дейишди. Нима дейман? Хўп-да... Кўпга келган тўй.

Маош ҳемири. Ярим пенсияга қўшиб, ойдан ойга аранг етказамиз.

Тўлов пластик картаси билан боғлиқ машмашаларни-ку, айтмай. Дўконга борасан. Керакли молнинг нарҳини сўрайсан. “Нақд олсангиз, саксон сўм, пластик карта билан тўласангиз, юз...”.

Деновда – бозорнинг нақ ўртасида «пластик картадаги пулни нақдга алмаштириш пункти» очилди. Уша безбет шаклда – юз сўм ечиб олишса, саксон сўм қўлингга беришади. Энг даҳшати, бу «пункт»ни бундай ҳоллар юз бермаслигини назорат этувчи таъкилотларнинг одамлари юритди. Додингни кимга айтишни билмайсан...

Бу лўттибозликлар бутун халқ кўз ўнгига рўй берди. Ҳеч ким миқз етолмади. Қўркув. Бу қўркувдан яралган тақдирсизлик – эртани ўйлашдан чўчиш – мудом елкадан тошдай босиб турди.

Қарз кўтардим. Долларда қарз берганларга долларда қайтариб бериш керак. Банк кассаларининг ёнига ҳам боролмайсан. Банклар долларни сотувга чиқариб, ўзи сотиб олиб ётибди. Одамларини қўйиб қўйган – аллақандай шанги хотинлар...

Бозорга борасан. Ҳар қадамда “долларчи”лар шайкаси... Долларнинг нарҳи расмий курсдан икки баробар баланд. Кўр бўлиб оласан.

Сурхондарёда ғалла етиштирган бир тадбиркор менга учрашиб, ғалласини топширганини, аммо ҳақини еб кетишганини айтди. Мен бир-икки амалдорга айтган бўлдим. Бирор натижа чиқмади. Тадбиркор шу хўрликнинг жабридан ўлиб кетди...

У-бу жойлардаги ўзгаришлар одамларнинг дастурхониға етиб келмади. Мамлакатни фириблар босди.

Бу ишга қарши курашиши зарур бўлган ташкилотлар давлат ичида давлат туздилар. Одамлар устидан ўзравонлик жорий этилди.

Масалан, Сурхондарёда хавфсизлик хизмати аллақандай фашистик (бошқа сўз уларнинг қилишини ифодолаб беролмайди) тизим ўрнатди. Одамларни пашша ўрнида кўрмадилар. Хўрладилар, мулкларини тортиб олдилар, мисли кўрилмаган қийноқларга солдилар, ўлдириб ҳам юбордилар. Қийноқларнинг Сталин замонига келган усулларини қўладилар. Уларни янада янги “поғона”ларга кўтардилар.

— Тирноқларимни сугуриб олдилар, — деб зориллаб эслайди уларнинг қўлига тушган бир беғуноҳ, — Хаммасини баравар сугурсалар ҳам майли эди, ҳар кун биттасини сугурадилар...

Ҳатто ҳокимларга ҳам таъйик ўтказилди. Бу юртда улар ҳам ишлашдан беэиб қолди. Ноилоҳ ишдан кетиш ҳақида ариза ёздилар.

Мустақилликдан одамларнинг кўнгли қолди.

Битта-ярим танишлар менга ҳам таъна қила бошлади: «Ана сиз орзу қилган истиқлол...».

Рости, мен ҳам бебаҳт яша-



дим. Газета-журналларда ёзганларимни нашр этиш нари турсин, исм-фамилиямни ҳам ўчириб ташлайдиган бўлишди. Мен нима қилган эдим? Бир кўрсатувда «Бировлар ҳаром-ҳариш йўл билан пул тўплайпти. Пайти келгач, пулини кўтариб, хорижга жўнаб кетади» деган рост гапни айтган эдим, холос. Бу кўрсатув туйғайли телевидениедаги неча-неча ижодкорлар жазоланди, ишдан кетди...

Тан олайлик, мустақилликнинг илк даврида янги тизимли мамлакатни бунёд этиш, ночорликдан қутулиш учун бир қадар қаттиққўллик ҳам зарур эди. Аммо мамлакат ривожланиб боргани сари бу қаттиққўллик ўрнини адолат ўлчамларига мос йўриқлар аста-аста эгаллаб бориши кераклиги ҳам барчага аён эди. Бироқ бундай бўлмади. Чунки энг тепадаги одам ҳам найрангбозларнинг қўлида асирдай яшади. Жойларда рўй бераётган, ҳатто ўз оиласида рўй бераётган воқеалардан ҳам ғафлатда қолди. Барча адолатсизликлар сир тutilди.

Юқорида ёзганларимни ҳеч ким рад этолмайди. Уларни бор бўйича кўрсатиш учун эса неча қиллаб китоблар ёзилса бўларди. Мен фақат бошимдан ўтказганларимнинг ва тугилган юртим Сурхондарёда рўй берган машъум воқеаларнинг бир қисминини эслаяпман.

Авж олган муаммоларни бартараф этиш йўлларини ҳеч ким билмасди.

Бироқ Парвардигор билгувчидир! У мамлакатни ривожланиш сари йўналтириш учун нима қилиш кераклигини аниқ билди.

Мамлакат Президентлигига Шавкат Миромонович Мирзиёев сайланди ва... бирдан мўъжизаларга ўхшаш ҳодисалар рўй бера бошлади.

Айтиб ўтганим — кўргиликлар битта-битта ечимини топиб кетаверди. Тўлов пластик карталари рисоладагидай ишлаш бошлади. Пенсиялар тўлиқ бериладиган бўлди. Банклар янгича ишлаш тизимига ўтди: хоҳласаларинг, мана сўм, истасаларинг доллар, марҳамат... Сурхондарёдаги одам қиёфасидаги хайвонлар ҳам жазосини олди. Аммо бу ечимларни топиш учун қанчалар сабот ва жасорат керак бўлгани фақат ва фақат Шавкат Миромоновичнинг бир ўзига аён. Ахир қаламга олгани ҳодисалардан ташқари, унинг зиммасида яна қанча-қанча ташвишлар бор эди.

Биргина Сурхон халқини зор қақшатган мустақилликнинг зараркуналари шайкасини тугатиш нақадар қийин бўлганини тасаввур қиламан. Ахир улар осмондан тушмаган — бу гумроҳларни Тошкентдаги мартабаси баланд, бели бакуват, бировни назар-писанд қилмайдиган хомийлари қўллаб-қувватлаб турарди. Бу жинойтчилар тўдасининг қўлами жуда катта — бири-бири билан зич боғланиб кетган, халқнинг манфаати деган муқаддас тушунчани тушида ҳам кўрмаган, одамлар ҳаётини ҳасдан ҳам арзон билган бедаво-лардан иборат эди. Аввал мана шу тўданинг боши кесилди. Бу иш осон бўлмади. Бўшангроқ бир одам бўлганда улар билан муро-саи мадора этиб кетаверарди. Аммо Шавкат Миромонович бун-

дай қилишни ўзига эп билмади. Чунки ўртада Ватан, халқ тақдир бор эди. Бўлажак Ватани бундай тўдаларга панжа орасидан қараб эмас, балки бу тоифа ноқислардан тозалаб, покиза ният ва эзгу ҳаракатлар билан яратиш лозимлигини Шавкат Миромонович мудом ҳис этиб турарди.

Ватани ҳалол одамлар яратишини бу инсон жуда теран тушунади.

Қотиллик иллоти юққан бу касалардан эл-юрт озод қилинди. Аввал “тепа”даги, кейин пастдаги қатлам илдиизи билан сугуриб ташланди. Бу гаплар айтишга осон...

Мамлакатимиз тарихида ушбу воқеалар кимгадир жуда кичик эпизод бўлиб туюлар, аммо Ватани халқнинг бошига чиқиб олган бундай жирканч тўдалардан озод этиш учун раҳбаримизга қанчалар матонат ва қатъият керак бўлганини бир тасаввур қилиб кўринг!

Эсимда: бу воқеалар ниҳоясига етказилгач, Президентимиз Сурхонга таширф буюриб, “Сурхондарё халқи, энди озодсан!” деб элга мурожаат этган эди.

Ҳақиқатан, Сурхондарё эркин нафас олди.

Мен фақат яхши билганим — Сурхондарё ҳақида ёзаяпман. Ўзбекистонда эса ўн тўртта маъмурий-ҳудудий бирлик бор. Президентимизнинг улардаги муаммоларни ҳал этишдаги мардонавор саъй-ҳаракатини қаламга олиш учун эса бу мақола кичиклик қилишини сезиб турибман.

(Давоми 3-бетда.)

Халқ депутатлари туман Кенгаши сессияси

Халқ депутатлари туман Кенгашининг йигирма иккинчи сессияси бўлиб ўтди. Уни Кенгаш раиси С.Нурмаҳматов олиб борди. Сессия ишида халқ депутатлари туман Кенгаши депутатлари ҳамда кун тартибига алоқадор корхона, муассаса ва ташкилотлар раҳбарлари иштирок этдилар.

Сессия кун тартибидеги биринчи ва иккинчи масалалар – “Халқ мурожаатлари билан ишлаш тизимини янги босқичга олиб чиқиш ва жамоатчилик фикрини чуқур таҳлил қилиш чора-тадбирлари тўғрисида” ҳамда “Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Худудларда юқори иқтисодий ўсиш ва аҳоли бандлигини таъминлашнинг янги тизимини йўлга қўйиш ҳамда бу борада маҳаллий ҳокимликларнинг роли ва масъулиятини ошириш чора-тадбир-

лари тўғрисида» 2024 йил 20 декабрдаги ПФ-223-сонли Фармониға асосан 2026 йилда Музработ туманини комплекс ижтимоий-иқтисодий ривожантириш дастурининг жорий йилнинг I-чорағида амалга оширилган ишлар ҳақида» туман Ҳокимининг биринчи ўринбосари С.Холниёзов ва туман Ҳокимининг ўринбосари Ш.Шакиров, кун тартибидеги учинчи ва тўртинчи масалалар – “Музработ тумани маҳаллий бюджетининг 2026 йил бўлида шакллланган эркин қолдиқ маблағлари ҳисобидан маблағ ажратиш ҳамда Музработ тумани маҳаллий бюджетининг 2026 йил I-чорак да-ромадлар режасидан орттириб бажарилган қисми ҳисобидан маблағ ажратиш тўғрисида» халқ депутатлари Музработ тумани Кенгашининг Маҳаллий

бюджет, тадбиркорликни ривожлантириш ва иқтисодий ислохотлар бўйича доимий комиссияси раиси Л.Мусаев, кун тартибидеги бешинчи ва олтинчи масалалар – “Музработ тумани бўйича 2026 йил 1 апрелдан 2026 йил 1 октябрга қадар сугуриш ишлари учун ажратилган сув лимитини тасдиқлаш ҳамда Музработ тумани “Йўлчи” маҳалла фуқаролар йиғини ҳудудида “Менинг боғим” лойиҳаси доирасида “Яшил боғ” ташкил этиш тўғрисида” халқ депутатлари туман Кенгашининг Аграр, қурилиш, коммунал соҳалар, экология, sanoat ва транспорт масалалари бўйича доимий комиссияси аъзоси У.Артиковалар маъруза қилдилар.

Депутатлар сессия кун тартибидеги масалалар юзасидан ўз муносабат, тақлиф, фикр ва мулоҳазаларини билдирдилар. Сессияда муҳокама қилинган масалалар бўйича қарорлар қабул қилинди.

Шу билан халқ депутатлари туман Кенгашининг йигирма иккинчи сессияси ўз ишини аяқунлади.



«Юксак маърифатли авлод — Учинчи Ренессанс пойдевори»

Мактабларда сўнгги кўнғирок

Кеча бутун республикаимиз бўйлаб ўтказилгани каби туманимиздаги барча умумтаълим мактабларида ҳам 2025-2026 ўқув йилининг ниҳоясига етиши муносабати билан «Сўнгги кўнғирок» тадбирлари зўр шодиёна тарзда ташкил этилди.

Шунингдек, туман марказидаги маҳобатли 1-умумтаълим мактабида «Юксак маърифатли авлод — Учинчи Ренессанс пойдевори» шиори остида шодиёна ўтказилди. Байромона безатилган мактаб ховлисида мутасаддилар, меҳмонлар, ота-оналар,

ўқитувчи ва ўқувчилар жам бўлишди. Мактаб ховлиси марказига битирувчилар тақлиф қилинди.

Дастлаб давлатимиз Мадҳияси сас сочди. Шундан сўнг туман Ҳокими ўринбосари Ф.Раҳмонов барчани ўқув йили якуни, битирувчиларни янги мустақил ҳаётга қадам қўяётганликлари билан қизгин табриклади. Шундан сўнг Йўлчи маҳалласи нурунийси Р.Оқбўтаев, мактаб директори Б.Маҳамматқуловлар битирувчиларнинг келгусидаги ўқишларига зафарлар тиладилар.

Бадий қисмда Ўзбекистон халқ бахшиси Р.Умиров термалари, бошланғич ва ундан юқори синф ўқувчилари ижролари намойиш этилди. Битирувчилар шеърлардан намуналар ўқиди.

Тадбирда ўқувчиларнинг ота-оналарига «Энг фаол ота», «Жонқуяр она», «Масъулиятли ота-она» каби номинациялар бўйича «Миннатдорчилик хат»лари, битирувчи ва аълочи ўқувчиларга эса «Фахрий ёрлик» ҳамда эсдалик совғалари топширилди.

Яқунда «Сўнгги кўнғирок» садолари янгради.

С.ҚУЛБОБОВЕВ.
Суратда: жараёндан лавҳалар.

O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 35 yilligiga

Davlat chegarasining tashkil topishi tarixi

O‘zbekiston Respublikasi davlat chegaralarining shakllanish jarayoni uzoq tarixiy rivojlanish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu jarayonni izchil tahlil qilish uchun uni muayyan davrlarga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

1. Qadimgi va oʻrta asrlarda hududiy chegaralarning shakllanishi

Hozirgi O‘zbekiston hududi qadimda Movarounnahr nomi bilan mashhur bo‘lgan. Bu davrda davlat chegaralari hozirgi tushunchadagi aniq chiziqlar ko‘rinishida mavjud bo‘lmay, asosan tabiiy-geografik omillar orqali belgilanardi. Daryolar, tog‘ tizmalari va cho‘llar hududiy ajralishning asosiy vositasi sifatida xizmat qilgan.

2. Rossiya imperiyasi davrida hududiy-siyosiy tizimning o‘zgarishi

XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo hududi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib

olinishi bilan hududiy chegaralarning shakllanishida yangi bosqich boshlandi. Natijada mintaqada Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilib, hudud markazlashgan boshqaruv tizimiga o‘tkazildi.

Buxoro amirligi va Xiva xonligi formal ravishda mustaqil bo‘lib qolgan bo‘lsa-da, amalda Rossiya protektorati ostida faoliyat yuritdi. Bu davrda chegaralar harbiy-strategik va ma‘muriy ehtiyojlardan kelib chiqib belgilanib, hududiy boshqaruv tizimi qayta tashkil etildi. Mazkur jarayon zamonaviy chegaralarning shakllanishi uchun muhim siyosiy va ma‘muriy asos yaratdi.

3. Sovet davrida milliy-hududiy chegaralanish jarayoni

XX asrning 20-yillarida Sovet Ittifoqi tomonidan amalga oshirilgan milliy-hududiy chegaralanish Markaziy Osiyoda davlat chegaralarining shakllanishida

hal qiluvchi bosqich bo‘ldi. 1924-yilda ushbu siyosat asosida O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tashkil etildi. Aynan Sovet davrida belgilangan ma‘muriy chegaralar keyinchalik mustaqil davlatlar o‘rtasidagi rasmiy davlat chegaralariga asos bo‘lib xizmat qildi.

4. Mustaqillik davrida dav-lat chegaralarining huquqiy shakllanishi

1991-yilda O‘zbekiston mustaqilligi e‘lon qilinishi natijasida O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida shakllandi. Shu bilan birga, sobiq Sovet Ittifoqi davrida mavjud bo‘lgan ma‘muriy chegaralar xalqaro huquq normalari asosida davlat chegaralari sifatida e‘tirof etildi.

Mazkur davrda davlat chegaralarini aniqlash va mustahkamlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Jumladan: delimitatsiya, ya’ni chega-

ralarni xaritalarda aniq belgilash;

demarkatsiya, ya’ni chegaralarni joyida maxsus belgilar bilan ajratish jarayonlari bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

5. Zamonaviy bosqichda davlat chegaralarining ahamiyati

Bugungi kunda O‘zbekiston davlat chegaralarida nafaqat hududiy ajralish chizig‘i, balki davlat suverenitetining muhim belgisi sifatida qaraladi. Ular:

milliy xavfsizlikni ta’minlaydi;

iqtisodiy va savdo aloqalarini tartibga soladi;

migratsiya va bojxona nazoratini amalga oshirishga xizmat qiladi;

qo‘shni davlatlar bilan siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Shu bilan birga, zamonaviy global jarayonlar sharoitida chegaralar nafaqat ajratuvchi,

balki birlashtiruvchi funksiyani ham bajarib, mintaqaviy integratsiya jarayonlarining muhim elementi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi davlat chegaralari uzoq tarixiy jarayonlar natijasida shakllangan bo‘lib, u Movarounnahr davridagi noaniq hududiy ajralishlardan boshlab, bugungi aniq va huquqiy jihatdan mustahkamlangan chegaralargacha rivojlandi. XIX asrda Rossiya imperiyasi, keyinchalik esa Sovet Ittifoqi davrida amalga oshirilgan siyosiy jarayonlar zamonaviy chegaralarning shakllanishiga asos bo‘ldi.

1991-yilda O‘zbekiston mustaqilligi e‘lon qilinishi bilan davlat chegaralari xalqaro huquq asosida rasmiylashtirilib, delimitatsiya va demarkatsiya orqali mustahkamlandi. Bugungi kunda bu chegaralar davlat suvereniteti, xavfsizlik va mintaqaviy hamkorlikning muhim omili hisoblanadi.

Kamron NIZOMOV, Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti 2-bosqich kursanti.

Департамент фаолиятдан

Фирибгарлик ҳолати аниқланди

Бош прокуратура ҳузуридаги Департаментнинг Музработ тумани бўлими томонидан фуқаро Ю.Р.нинг аризасига асосан, терговга қадар текширув ўтказилган. Маълум бўлишича, фуқаро Ж.Х. муқаддам Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 168-моддаси билан жавобгарликка тортилган бўлсада, ўзига тегишли хулоса чиқармаган.

У ариза муаллифи Ю.Р.ни Термиз халқаро аэропортига ҳамшира вазифасига ишга киритишга “ваъда берган”. Шунинг эвазига 7,5 миллион сўм пулларни олиб, ўзининг эҳтиёжларига ишлатиб ююрганлиги аниқланган.

Мазкур ҳолат юзасидан Жиноят кодексининг тегишли моддалари билан жиноят иши кўзғатилиб, тергов ҳаракатлари олиб борилмоқда.

Бузоқнинг югургани сомонхонагача

Департаментнинг Музработ тумани бўлими томонидан Кумкўрғон тумани, “Сурхон соҳили” маҳалласи ҳудудига тезкор тадбир ташкил этилди. Жараёнда фуқаро Н.М курилиш ишларида фойдаланиладиган автомобилнора бошқариш ҳуқуқини берувчи махсус гувоҳномами танишлари орқали олиб беришмоқчи бўлади. Эвазига “А” исмли шахс ва унинг танишидан ҳар бир гувоҳнома учун 2,5 миллион сўмдан, жами 5 миллион сўм пул маблағларини олишни талаб қилади. У “Турон” кафеси ёнида фирибгарлик йўли билан маблағни олган вақтида ашёвий далиллар билан ушланган.

Ҳолат юзасидан Жиноят кодексининг тегишли моддалари билан жиноят иши кўзғатилиб, тергов ҳаракатлари олиб борилмоқда.

Д.ЙЎЛДОШЕВ,

Департаментнинг Сурхондарё вилояти бошқармаси катта инспектори.

А.КОРАХОНОВ,

Департаментнинг Музработ тумани бўлими бошлиғи.

Korrupsiya — taraqqiyot kushandasi

Singapur tajribasi va O‘zbekiston istiqboli

Bugungi globallashuv sharoitida har bir davlat o‘zining barqaror taraqqiyot modelini shakllantirishga intilar ekan, ushbu jarayonga jiddiy tahlid soluvchi omillardan biri sifatida korrupsiya muammosi alohida ahamiyat kasb etadi. “Corruptpere” (lotincha – “buzish”, “chirish”) atamasidan kelib chiqqan korrupsiya tushunchasi nafaqat iqtisodiy tizimni izdan chiqaradi, balki jamiyatning ma’naviy asoslarini ham yemiradi.

Tarixiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, korrupsiya elementlari dastlabki ijtimoiy tuzilmalardayoq mavjud bo‘lgan. Qabila boshliqlariga ma’lum imtiyozlar evaziga sovg‘alar taqdim etish amaliyoti vaqt o‘tishi bilan institutsional korrupsiyaga transformatsiyalashgan. Qadimgi Shumer davlatida korrupsiyaga qarshi ilk huquqiy choralar qo‘llangani mazkur muammoning tarixiyildizlari chuqur ekanini tasdiqlaydi. Zamonaviy iqtisodiy nazariyalarga ko‘ra, korrupsiya resurslarning samarasiz taqsimlanishiga olib keluvchi asosiy omillardan biridir. Uning salbiy ta’siri bir necha yo‘nalishda namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, korrupsiya investitsiya muhitini yomonlashtiradi. Xorijiy investorlar huquqiy kafolatlar sust bo‘lgan, norasmiy to‘lovlar keng tarqalgan bozorga kirishdan tiyiladilar. Natijada kapital oqimi kamayadi, innovatsion rivojlanish sekinlashadi.

Ikkinchidan, sog‘lom raqobat muhitiga putur yetadi. Bozor mexanizmlariga ko‘ra eng samarali subyektlar ustunlikka ega bo‘lishi kerak bo‘lgan. Korrupsiya sharoitida “institutional renta” olish imkoniga ega guruhlar ustunlik qiladi.

Uchinchidan, korrupsiya xufyona iqtisodiyotning kengayishiga olib keladi. Soliq va bojxona tizimidagi noqonuniy amaliyotlar davlat budjetining qisqarishiga sabab bo‘ladi, bu esa ijtimoiy sohalarining moliyalashtirilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Korrupsiya faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy-madaniy hodisa hamdir. Uning ildizlari ko‘p hollarda jamiyatda shakllangan norasmiy me’yorlar bilan bog‘liq. Xususan, “sovg‘a-salom”, “rozi qilish” kabi tushunchalar ayrim hollarda korrupsion xatti-harakatlarni legallashtiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, davlat xizmatchilarining moddiy ta’minoti darajasi ham muhim omillardan biridir. Past darajadagi ish haqi korrupsion xatti-harakatlar uchun iqtisodiy rag‘batni kuchaytiradi. Shu nuqtai nazardan, korrupsiyaga qarshi kurashda institutsional va iqtisodiy omillarni uyg‘un holda hisobga olish zarur.

Singapur tajribasi: institutsional model

Jahon tajribasida korrupsiyaga qarshi samarali kurash modeli sifatida Li Kuan Yu boshchiligidagi Singapur

Bilasizmi? Avtomobil yo‘llarining nosozlik sabablari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo‘llarida xavfsizlikni ta’minlash va tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 26-dekabrdra 342-son qarori qabul qilingan. Qaror yo‘llarda harakat xavfliligini ta’minlash va yo‘l sifatiga shikast yetkazishning oldini olish maqsadida og‘ir yuk mashinalari yo‘lda harakatlanganda yuk me‘yorlarini tartibga solishdan iborat.

Qarorda avtotransport vositasining avtomobil yo‘llarida harakatlangan vaqtda quyidagi massadan ortiq yuk bilan yurishi mumkin emas.

Avtotransport vositalarining ruxsat etilgan massasi:

Transport vositasi turi	Ko‘rsatkich (t)
Yakka avtotransport vositalari:	
ikki o‘qli uch o‘qli to‘rt o‘qli	18 26 32
Mingashmali va tirkamali avtopoyezdlar:	
uch o‘qli to‘rt o‘qli besh o‘qli olti va undan ortiq o‘qli	28 36 40 44

Ayrim haydovchilar noqonuniy tarzda o‘z manfaatini ko‘zlab yo‘llarda yuqoridagi me‘yordan ortiq yuk ortib yo‘llarni yaroqsiz holga keltirmoqda. Natijada yo‘llarda uzun chuqurlar paydo bo‘lib, yo‘l harakatiga salbiy ta’sir qilmoqda. Ayniqsa, kunning issiq vaqtida me‘yordan ortiq yuklamalar asfaltbeton qoplamani siljishiga sabab bo‘lib, natijada qoplamaning yaroqlilik muddati qisqarmoqda.

Ushbu me‘yordan ortiq yuk bilan harakatlangan haydovchilar O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘grisidagi kodeksining125‘l-moddasiga asosan:

«Yuk bilan yoki yuksiz holdagi gabarit o‘lchamlari, shuningdek, umumiy haqiqiy vazni, o‘qqa tushuvchi og‘irligi belgilangan normadan o‘n foizgacha ortiq bo‘lgan transport vositalarida yo‘lga chiqish –bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Yuk bilan yoki yuksiz holdagi gabarit o‘lchamlari, shuningdek, umumiy haqiqiy vazni, o‘qqa tushuvchi og‘irligi belgilangan normadan o‘n foizdan yigirma foizgacha ortiq bo‘lgan transport vositalarida yo‘lga chiqish – bazaviy hisoblash miqdorining o‘n besh baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Tegishli ruxsatnomasiz og‘ir vaznli, yirik gabaritli, xavfli yuklarni tashish, yuk bilan yoki yuksiz holdagi gabarit o‘lchamlari, shuningdek, umumiy haqiqiy vazni, o‘qqa tushuvchi og‘irligi belgilangan normadan yigirma foizdan ortiq bo‘lgan transport vositalarida yo‘lga chiqish, xuddi shuningdek, ruxsatnomada ko‘rsatilgan harakat yo‘nalishidan chetga chiqish, – bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Ushbu moddaning ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi qismlarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar sodir etilganda avtotransport vositalarining gabarit va vazn parametrlarini aniqlashda o‘lchash asbobidagi yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan jami xatolar hisobga olinib, o‘lchash asbobida qayd etilgan gabarit va vazn parametrlaridan ikki foizli farq chegirib tashlangan holda, ma‘muriy jazo chorasini qo‘llaniladi” deb javobgarlik belgilangan.

Shuningdek, yo‘llardan foydalanish korxonalar tomonidan me‘yordan ortiq yuk bilan yo‘llarda harakatlanib asfaltbeton qoplamalarga shikast yetkazgan haydovchilarga nisbatan yetkazilgan zarar fuqarolik, iqtisodiy sudlar orqali undirib olinadi.

A.JO‘RAYEV,
tuman yo‘llardan foydalanish korxonasi davlat muassasasi yuriskonsulti.

Фарзанд тарбияси

Ёшлар келажагимиз давомчиларидир

Одоб-ахлоқ инсон зийнати. Ана шу фазилат орқали инсон улуғланади. Қилган хайрли ва савобли ишларида барака бўлади. Ҳалол меҳнат ортидан топилган ризқ-рўз тотли бўлади, -дейди кўпни кўрган кекса отахону-онахонларимиз. Дарҳақиқат, бу ҳикмат замирида пурмаъно мазмун мужассам. Донишмандлар фикрича, оиласида поклик, ҳалоллик бўлган инсонларнинг рўзғоридан тинчлик, тотувлик бўлarkan. Хонадонидеда улғайган фарзандлар ҳам ақл-заковатли бўлиш билан биргаликда одоб-ахлоқли, оилапарвар, адолатпарвар, зеҳни ўткир бўлиб камол топар экан. Улғайиб катта бўлгач, заковати ва саховати билан эл-улус ўртасида обрў-эътиборга сазовар бўлади. Бундан кўриниб турибдики, катта ҳаёт тақрибасига эга бўлган аҳли до-нишлар фикри, бугунги кунга келиб ҳам ўз кадр-қимматини йўқотмаганлигига яна бир бор амин бўламыз.

Бу дунёда умргузаронлик қилар эканмиз, ҳар бир ота-онанинг орзу умиди вояга етаётган ўғил-қизларининг келажакда бахту-саодатини кўриш. Уларни солиҳ ва со-лиҳа фарзандлар қилиб тарбиялашди. Бу залворли ва масъулиятли масалада энг аввало оиладаги таълим-тарбиянинг ўрни бекиёс.

Оиладаги муҳит соғлом бўлса, фарзандлар ўртасидаги ўзаро муносабат тўғри шаклланса, албатта, ўз самарасини беради.

Бугун юртимизда ана шундай намунали оилалар сони минглаб, миллионлаб-ни ташкил этади. Улардан ибрат олса арзийди. Аммо “шоли курмаксиз бўлмайди” деганларидек, айрим оила-лардаги носоғлом муҳит бу-нинг акси. Ота-оналар ўз фарзандининг таълим-тарбиясига бутунлай бефарқ. Нима иш билан шуғуллана-ётганидан ҳаттоки беҳабар. Юриш-туришига, одоб-ахло-қига эътибор беришмайди. Ана шундай муҳитда таълим-тарбия олган аксарият ўғил-қизлар ўзалари билиб-бил-май, жиноят оламига кириб қолишмоқда.

Улар ўртасида турли хил кўнглисизликлар содир эти-лаётгани ачинарли ҳол, ал-батта.

Шу ўринда бир мулоха-за: хўш, ўсмирлар орасида жиноятга мойиллик қаердан ва қандай пайдо бўлаяпти? деган ҳақли савол туғили-ши табиий. Масалага жид-дийроқ ёндашадиган бўлсак, бунинг асосий сабаби бе-корчилик ва бепарволик оқибати эканлигига гувоҳ бўламыз. Ваҳоланки, бирор бир фойдали машғулот би-лан банд бўлган бола ҳеч қачон кинғир ва номаъқул ишларга қўл урмайди. Вақ-

тини бўлмағур ишларга сар-фламайди.


Статистик маълумотлар-га қараганда, ёмон ишларга қўшилиб қолиш ҳоллари кўпинча иллатларга моне-лик, бекорчиликдан келиб чиқиши аниқланган. Баъзи-да биз, ота-оналар лоқайд бўламыз, болаларимиз тақ-дири билан қизиқмаймиз, ўз ишимиз, юмушимиз билан банд бўлиб, фарзанд тар-биясига жиддийроқ эътибор қаратмаймиз. Оқибатда бир кун келиб фарзандларимиз томонидан содир этилган нохуш ҳолатларни эшитиб қолганимизда, афсуслана-миз. Аммо кеч бўлган бўла-ди. Мамлакатимизда ана шу жиҳатларга эътибор қарати-лган ҳолда ёшлар таълим-тарбиясига устувор вазифа сифатида қаралиб келин-моқда.

Дарҳақиқат, юртга фи-дойи, олижаноб ўғил-қизлар-ни тарбиялаб камол топти-риш энг аввало, маънавият-ли-маърифатли фарзандлар тинимсолида намоен бўлади. Бунинг учун уларни одоб-ахлоқли, ҳаётга теран нигоҳ билан қарайдиган инсонлар қилиб тарбиялашга боғлиқ. Шундай экан, ҳар бир ота-қона ўз фарзандини ватан-парварлик руҳида тарбияла-моғи лозим.

Сайдулла ШОБЕРДИЕВ,
ДХХ чегара кўшинлари хизматчиси.

Ўзбекистон Республикаси Мустақиллигининг 35 йиллигига

Гўзаллик яратиш мўъжизаси



